



XALQ DEPUTATLARI TOSHKENT VILOYATI KENGASHINING Q A R O R I

2023 - yil 24 - mart

VI-71-25-10-0-K/23

Toshkent viloyati hokimiligi

Toshkent viloyati hududida huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish, jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash borasida 2022-yilning 12 oyi davomida amalga oshirgan ishlari to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-apreldagi "Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi 5050-sonli Qarori talablari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-noyabrdagi "*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida*"gi 27-sonli farmon talablariga muvofiq jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha o'rnatilayotgan yangi mexanizmlarning samarali amalga oshirilishini ta'minlashda ichki ishlar organlarining roli va mas'uliyatini yanada oshirish maqsadida Toshkent viloyati Ichki ishlar bosh boshqarmasi va uning quyi tizimlari tomonidan joriy yilning 12 oyi davomida xalqimizning tinchligi va osoyishtaligini ta'minlash, ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida bir qancha ijobiy ishlar amalga oshirildi.

Jumladan, viloyat hududida jamoat tartibi va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash maqsadida viloyat hududida 10 dan ortiq maxsus profilaktik tadbirlar o'tkazildi.

Shuningdek, 102 tizimiga kelib tushgan xabarlar yuzasidan voqea joyiga qisqa muddatlarda (5-8 daqiqa) yetib borish amaliyoti joriy etilganligi natijasida yaqqol jinoyat alomatlari bo'lgan 14 ming 868 ta xabarlarning 51 foizi (7 ming 609 tasi) jinoyatga aylanib ketishini oldi olindi.

Yuqoridagi tezkor-profilaktik tadbirlar va amalga oshirilgan ishlar natijasi 2022-

yil 12 oyi davomida, oldi olinishi lozim bo'lgan jinoyatlar (7 747/7 259) 6 foizga kamayishiga erishildi.

Shuningdek, qotillik jinoyati (69/62) 10 foizga, nomusga tegish (80/72) 10 foizga; bosqinchilik (67/56) 16 foizga, talonchilik (108/86) 20 foizga, firibgarlik (1 748/1 706) 2,4 foizga, o'g'rilik (1 764/1 657) 6 foizga, bezorilik (395/372) 6 foizga, avtomashinani olib qochish (43/39) 9 foizga, yo'l transport hodisasi bilan bog'liq jinoyatlar (1020/1015) 0,5 foizga, o'lim bilan tugaganlari (316/287) 9,2 foizga kamayishiga erishildi. Sodir etilgan jinoyatlarning 91 foizi fosh etilishiga erishildi.

Viloyatdagi 1 ming 22 ta mahallalarning 20,3 foizida yoki bo'lmasa 207 tasida umuman jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'yilmagan bo'lsa, 532 tasida yoki 52,1 foizida jinoyat soni barqaror va kamayishiga erishildi.

Shuningdek, 2022-yil davomida, 1 ming 360 ta holatda giyohvandlik, 639 ta o'zlashtirish yoki rastrata qilish, 263 ta holatda pora oldi-berdisi bilan bog'liq jinoyatlar, 173 ta ekstremizm, 147 ta qo'shmachilik qilish va fohishaxona saqlash, 113 ta ma'muriy nazorat qoidasini buzish, 58 ta noqonuniy qurol saqlash, 17 ta valuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o'tkazish, 16 ta qalbaki pul yasash, 9 ta odam savdosi bilan bog'liq jinoyatlar shaxsan Ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan aniqlanib, jinoyat sodir etgan shaxslar, qonunda belgilangan tartibda jinoiy javobgarlikka tortilishlari ta'minlandi.

O'tgan yilning 12 oyi davomida jinoyatlarni oldini olishning bevosita profilaktikasi bo'lgan huquqbuzarliklarni oldini olish yo'nalishida 243 ming 143 ta ma'muriy huquqbuzarliklar shaxsan Ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan aniqlanib, ma'muriy huquqbuzarliklarni aniqlash holati 2021 yilga nisbatan 31 ming 728 taga yaxshilangan.

Profilaktik tadbirlar davomida, 106 ming 78 nafar shaxslar profilaktik hisobga olingan bo'lib, shu bilan bir qatorda ilgari sudlangan shaxslarning 3 ming 181 nafari profilaktik hisobdan chiqarilgan.

Shuningdek, 3 ming 179 nafar shaxslar reabilitatsiya qilish markaziga, 3 ming 117 nafari Voyaga yetmaganlar markaziga, 9 ming 372 nafar shaxslar maxsus qabulxonaga joylashtirildi.

Sog'liqni saqlash muassasalari bilan hamkorlikda, hisobda turuvchi ichkilikka ruju qo'ygan, giyohvandlar hamda tajovuzkor ruhiy-kasallarni yashash manzili bo'yicha "patronaj" xizmati tibbiyot xodimlarini keng jalb etgan holda doimiy o'rganib borilib, hisobda turgan 4 ming 408 nafar shaxslardan 1 ming 389 nafar yoki 31,5 foizi majburiy davolash muassasalariga joylashtirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 16-maydagi "Aholiga narkologik yordam ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 244-sonli qaroriga asosan Toshkent viloyatida 2022-yilda

9 ta Tibbiyot birlashmalari tarkibida mastlik holatida bo'lgan shaxslarga tibbiy yordam ko'rsatish tumanlararo punktlari tashkil etish belgilangan bo'lib, 2023-yilning 1-yanvaridan boshlab, viloyatning Angren, Olmaliq, Chirchiq, Yangiyo'l, Nurafshon shaharlarida hamda Bekobod, Bo'ka, Parkent, Toshkent tumanlarida hushyorxonalarining ish faoliyatlari yo'lga qo'yildi.

Shuningdek, 2022-yilning 12 oyi davomida 12 ming 454 ta ajrim yoqasiga kelgan oilalar o'rganilib, ular bilan olib borilgan profilaktik chora-tadbirlar natijasida 8 ming 233 ta oilalar yarashtirildi.

2022-yil davomida xotin-qizlar bilan bog'liq holatda ko'rib chiqilgan 24 ming 585 ta fuqarolik va ma'muriy ishlarning ishtirokchilari bo'lgan, nizolashayotgan 17 ming 310 ta oila o'rganilib, 14 ming 29 ta muammolar bartaraf etildi. 7 ming 839 nafariga himoya orderlari berildi.

Himoya orderi berilgan oilalar bilan olib borilgan profilaktik tadbirlar natijasida 3 ming 866 ta oila yarashtirildi, 3 ming 517 tasining nizolari bartaraf etilgan.

Himoya orderi berilgan 30 nafar xotin-qizlar reabilitatsiya markaziga joylashtirilgan bo'lsa, himoya orderida ko'rsatilgan cheklovlarni buzganligi uchun 607 nafar shaxs ma'muriy javobgarlikka tortildi.

Viloyatdagi 886 ta maktabda ta'lim olayotgan 504 ming 897 nafar o'quvchilarni 2021-2022 o'quv yilida o'qishga kelib-ketishining kundalik nazorati yo'lga qo'yildi.

2022-yil 12 oy davomida 41 ming 870 marotaba "davomat" tadbiri o'tkazilib, 404 nafar o'quvchilarning uzoq muddatga chiqib ketganligi, 176 nafari tig'li jism olib yurganligi aniqlanib, ularning ota-onalarga nisbatan O'zbekiston Respublikasi MJtKning 47-moddasiga asosan tegishli choralar qo'llanildi.

Voyaga yetmaganlar bilan olib borilgan profilaktik chora-tadbirlar natijasida natijasida 2022-yilning 12 oyi davomida voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar (258/255) 1,5 foizga kamayishiga erishildi.

Ilgari sudlangan shaxslarni ijtimoiy hayotga moslashishlarini yengillashtirish, profilaktika inspektorlari va mahalla faollari tomonidan ushbu toifadagi shaxslar bilan yaqindan ishlash, ularni turmush tarzini kuzatib borish, qayta jinoyat sodir etishlarini oldini olish maqsadida mahalladan murabbiy biriktirish, ishsizlarini ish bilan ta'minlash choralari ko'rilmogda.

Hususan, 2022-yilda hududlarda 154 marotaba mehnat yarmarkalari o'tkazilib, 1 ming 473 nafar ilgari sudlanganlarni ish bilan ta'minlash bo'yicha bandlik bo'limlariga yo'llanmalar berilib, 1 ming 434 nafariga moddiy yordamlar ko'rsatildi.

2022-yilning 12 oyida ma'muriy nazoratga olingan 3 ming 492 nafar ilgari sudlanganlarga 4 ming 345 nafar MFY faollari va jamoatchilik vakillari murabbiy etib

biriktirildi.

Bundan tashqari, Probatsiya xizmati hisobida turib mehnatga halol munosabatda bo'lgan, sud tomonidan belgilangan cheklovlarga to'liq rioya etgan 3 ming 268 (2975) nafar mahkumlarga nisbatan Jinoyat kodeksining 73-moddasiga asosan insonparvarlik dalolatnomalari qo'llanilib, jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod etildi.

Sud chiqargan hukm hamda ajrim ijrosidan bo'yin tovlagan hamda tuzalish yo'liga kirmaganligi uchun 949 nafar hamda qidiruvda bo'lgan 63 nafar mahkumlar ushlanib JIEMlariga qaytarilgan.

Shuningdek, 2022-yilning 12 oy davomida joylardagi probatsiya guruhlariga hisobiga 10 ming 971 (8 969) nafar mahkumlar yangitdan hisobga olingan bo'lsa, 9 ming 695 (7048) nafar mahkumlar hisobdan chiqarilgan.

Probatsiya guruhlarida nazorat hisobida turuvchi mahkumlar bilan olib borilgan profilaktik chora tadbirlar natijasida, ular tomonidan sodir etilgan jinoyatlar 25 foizga (60/45) kamayishiga erishildi.

2022-yilning 12 oyi davomida mahalla, korxona va muassasalarda 11 ming 945 ta sodir etilgan jinoyatlar muhokama qilindi, jinoyat sodir etgan shaxslarning qilmishiga pushaymonlik tuyg'ularini shakllantirish maqsadida 268 dan ortiq "sayyor sud" majlislari tashkil etildi.

Amalga oshirilgan ishlar va jinoyatlarni oldini olish va fuqarolarning huquqiy ongini yanada oshirish maqsadida ommaviy axborot vositalari orqali 6 ming 345 dan ortiq chiqishlar qilindi.

Shuningdek, hududlarda yo'l harakati xavfsizligini oldini olish bo'yicha 1 035 marotaba korxona va tashkilotlarda, 1 080 marotaba uyushmalarda, 5 115 marotaba maktablarda, 2 240 marotaba mahallalarda suhbat va yig'ilishlar o'tkazildi.

53 marotaba gazeta, jurnallarda 303 marotaba televideniyada va 762 marotaba radio hamda 1 874 marotaba ijtimoiy tarmoqlarda chiqishlar tashkil etildi.

Shuningdek, 74 marotaba "Avtopatrul reydy", 86 marotaba "Avtopatrul tun" 16 marotaba "Diqqat, piyoda" va "Diqqat, bolalar", 18 marotaba "Avtobus" 4 marotaba "Diqqat, temir yo'l", 23 marotaba "Qizil chiroq" va 19 marotaba noqonuniy qayta jihozlangan transport vositalari bo'yicha profilaktik tadbirlar o'tkazildi.

O'tkazilgan tadbirlar natijasida 441 ming 53 ta qoidabuzarliklar aniqlangan bo'lib, shundan 172 ming 257 tasi (*umumiy qoidabuzarliklarning 43 foizi*) qo'pol qoidabuzarliklar hisoblanadi.

Huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash va ularga chek qo'yish maqsadida mavjud jami 193 ta fotoradar va intellektual kameralar o'rnatilib, ular yordamida jami

947 ming 144 ta belgilangan tezlikni oshirish qoidabuzarliklari aniqlandi.

Yo‘l transport hodisalarini tahlillaridan kelib chiqib, Yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi hamda mahalliy hokimiyat, yo‘l va obodonlashtirish tashkilotlari bilan hamkorlikda, 2 ming 751 ta yangi namunadagi nur qaytaruvchi yo‘l belgisi o‘rnatildi. 4 ming 62 ta yo‘l belgisi almashtirildi va 388 ta yo‘l belgisi qayta tiklangan bo‘lsa 4.135 km yo‘l chiziqlari chizildi.

Shuningdek, 30 ta joyga svetofo qurilmasi o‘rnatildi. *(17 tasi transport va 13 tasi piyodalar svetofo)*. 43 ta chorrohadagi svetofo larning ishlash rejimiga o‘zgartirishlar kiritildi.

-6 ta aholi punktlariga tungi yoritish chiroqlari o‘rnatildi. 1 ming 243 ta piyodalar o‘tish joylari qayta tiklandi. 237 ta piyodalar o‘tish joylariga yangidan yo‘l chiziqlari chizildi. 24 ta piyodalar o‘tish joylariga tungi yoritish chiroqlari o‘rnatildi. 79 ta joyga sun‘iy notekisliklar qo‘yildi.

Olib borilgan chora-tadbirlar natijasida viloyatda sodir bo‘lgan yo‘l-transport hodisalari 34 taga *(1336/1302)* yoki 2,5 foizga, shundan, o‘lim bilan bog‘liq yo‘l-transport hodisalari 29 taga *(316/287)* yoki 9,2 foizga, tan-jarohati bilan bog‘liq yo‘l-transport hodisalari 5 taga *(1020/1015)* yoki 0,5 foizga kamayishiga erishildi.

2022-yilda Ichki ishlar organlari tizimida sohalarni raqamlashtirish orqali ish samaradorligini oshirish va inson omilini kamaytirish, korrupsion holatlarni oldini olishga alohida e‘tibor qaratildi.

Jumladan, 2022-yilda viloyat hokimiyati tomonidan berilgan 5 mldr. miqdoridagi mablag‘lar hisobidan kriminogen vaziyati og‘ir bo‘lgan 100 ta mahallalar ajratib olinib ularga jami 841 ta kuzatuv kameralari o‘rnatilib, joylardagi IIB va Markaziy tayanch punktlariga integratsiya qilindi.

Viloyat IIBning 2022-yil 17-oktabrdagi 115-sonli farmoyishi asosida Chirchiq shahar hududida 32 ta obyektlarga jami 216 ta kameralar o‘rnatildi. *(93 tasi shaxsni yuzdan tanib olishga mo‘ljallangan, 123 tasi kuzatuv kameralarini tashkil etadi)*

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 27-oktabrdagi “*O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini Toshkent shahri va Toshkent viloyatida vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishning tajriba-sinov tariqasidagi yangi tartibini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida*”gi 622-sonli qarori asosida Toshkent viloyatida O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini profilaktika inspektorlari tomonidan maxsus planshet qurilmalari orqali vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish tartibi belgilangan bo‘lib, unga asosan “E-RENT” dasturi ishlab chiqildi.

Ushbu dastur 955 nafar profilaktika inspektorlaridan 543 nafarining planshetlarga test rejimida o‘rnatildi.

Sodir etilgan jinoyatlarni kelib chiqish sabablarini va unga imkon bergan shart-sharoitlarni mahallada muhokama qilishda sektor rahbarlari, tegishli muassasalarning ishtirokini ta'minlash maqsadida "E-muhokama" elektron dasturi yaratilib, ushbu elektron dasturi profilaktika inspektorlarining planshetlariga integratsiya qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-apreldagi 5050-sonli hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 8-iyuldagi 431-sonli qarorlariga asosan ma'muriy ishlar bo'yicha sud majlislari videokonferensiya aloqa tarzda o'tkazilishi yo'lga qo'yildi.

Shunga asosan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va IIVning qo'shma qarori asosida joylarda 313 ta Militsiya tayanch punktlari sudlarga integratsiya qilingan bo'lib, 2022-yil davomida 10 ming 132 ta ma'muriy hujjatlar onlayin tarzda ko'rib chiqilishi ta'minlandi.

Profilaktika inspektorlari xizmat faoliyati davomida foydalanishlari, ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha ish yurituvni elektron tarzda amalga oshirish, masofadan turib sud jarayonlarini tashkillashtirish maqsadida 2022- yilda qo'shimcha ravishda xodimlarga 17 ta kompyuter jamlanmalari, 25 ta skaner va 17 dona veb-kameralar tarqatildi.

Toshkent viloyatida 1-bosqichda jami 45 ta Huquq-tartibot maskanlari tashkil etilishi rejalashtirilgan bo'lib, bugungi kunda 29 ta *(4 ta yangidan qurildi, 18 ta IIB, 7 ta mavjud Tayanch punktlari negizida)* huquq-tartibot maskanlari tashkil etildi.

Huquq-tartibot maskanlariga hududiy ichki ishlar organlari boshliqlarining farmoyishlariga asosan, jami 612 nafar xodimlar biriktirildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi "Ichki ishlar organlari tayanch punktlari profilaktika inspektorlarini 2021-2023- yillarda xizmat uy-joylari bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 317-sonli qarori asosida viloyatda 424 ta xizmat uylari barpo qilinishi, 11 tasi mukammal ta'mirlanishi belgilangan.

Shundan, 142 tasi 2021-yilda, 141 tadan 2022-2023-yillarda qurilishi, shuningdek, avvalgi yillarda qurilgan xizmat uylarining 5 tasi 2021-yilda, 3 tadan 2022-2023-yillarda ta'mirlanishi ko'zda tutilgan.

2021-yilda dasturga asosan, 142 ta xizmat uylarini qurish hamda 5 ta xizmat uylarni mukammal ta'mirlash belgilangan bo'lib, shundan 48 ta xizmat uylari loyihasmeta hujjatlari va ekspertiza xulosasi olingan, ekspertiza xulosasiga ko'ra obyektlarni qiymati 18 mlrd 404,8 mln so'mni tashkil qilgan.

Bugungi kunda, tanlovdan *(tenderdan)* o'tkazilgan 48 ta *(Ohangaron t 2 ta, Ohangaron sh, Bekobod va Piskent t 3 tadan, Olmaliq sh, Bo'stonliq, Bo'ka t 6 tadan, Yangiyo'l t 9 ta, Parkent t 10 ta)* xizmat uylarini qurish bo'yicha pudrat tashkilotlari

bilan 18 mlrd 404 mln 800 ming soʻmlik shartnomalar tuzilgan boʻlib, Buyurtmachi “Yagona buyurtmachi xizmati” IK tomonidan qurilish obyektlariga 8 355,1 mln soʻm moliyalashtirib berilgan.

Shuningdek, 2021-yilda qurilish rejalashtirilgan obyektlarni moliyalashtirish ishlari amalga oshirilmaganligi sababli 94 ta yangi qurilish va 5 ta mukammal taʼmirlash ishlari umuman amalga oshirilmagan.

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 1-fevral kunidagi *“Fuqarolarni oʻzini-oʻzi boshqarish organlari majmualarini tashkil etish boʻyicha 2021-2022-yillarga moʻljallangan manzilli dasturni tasdiqlash haqida”*gi 46-sonli qarori asosida 2021-yilda qurilgan mahalla binolaridan 175 tasida profilaktika inspektorlari uchun xizmat xonalari ajratilgan boʻlib, bugungi kunda 207 ta mahallalarda Tayanch punktlari yetishmaydi.

Mazkur qaror talablari asosida quriladigan mahalla binolarining 65 tasida xizmat xonasi mavjud boʻlmagan profilaktika inspektorlari uchun xizmat xonalari ajratilishi rejalashtirilgan boʻlib, bugungi kunda ushbu binolarning 13 tasi foydalanishga topshirish uchun tayyor holatda.

Tayanch punktlari mavjud boʻlmagan 24 ta mahallalarga 6 metrli konteynerlar hisobidan Tayanch punktlari tashkil qilinmoqda.

Shahar-tuman ichki ishlar organlarida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini reyting tizimida baholanib, 1 ming 504 nafar ilgʻor xodim va rahbarlar pul mukofoti va esdalik sovgʻalari bilan ragʻbatlantirilgan boʻlsa, past koʻrsatkichlarga ega boʻlgan va xizmat intizomini buzgan 861 nafar xodimlar intizomiy tartibda jazolandi.

Yuqorida sanab oʻtilgan ijobiy koʻrsatkichlar hamda qaror ijrosi doirasida amalga oshirilgan ishlar va yaratilgan shart sharoitlar shaxsiy tarkibni xizmat olib borishiga oʻzining ijobiy taʼsirini koʻrsatgan boʻlsa-da, ijobiy natijalar qatorida kamchiliklarga ham yoʻl qoʻyilgan.

Jumladan, viloyat hududida 2022-yilning 12 oyi davomida 62 ta qotillik, 176 ta ogʻir tan jarohati yetkazish, 86 ta talonchilik, 56 ta bosqinchilik, 1 ming 657 ta oʻgʻrilik, 72 ta nomusga tegish, 372 ta bezorilik, 1 ming 706 ta firibgarlik, 39 ta transport vositasini olib qochish jinoyatlari sodir etilgan.

Sodir etilgan jinoyatlar shaxslar kesimida tahlil qilinganida, 1 ming 744 tasi ishlamaydiganlar tomonidan, 782 tasi ayollar tomonidan, 2 ming 767 tasi yoshlar (18-30 yosh) tomonidan, 248 tasi maktab oʻquvchilari tomonidan sodir etilgan.

Shuningdek, alohida toifadagi shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar tahlil qilinganda mast holatdagi shaxslar tomonidan 600 ta, ilgari sudlangan shaxslar tomonidan 1 ming 861 ta jinoyatlar sodir etilganligi aniqlangan

Viloyatda huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish, jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash borasida maqsadida O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashi,

Q A R O R Q I L A D I:

1. Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmasi boshlig'i T.Aripovning hamda viloyat ichki ishlar bosh boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari Z.Iminovning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Mahalliy hokimliklar, davlat boshqaruvi idoralari, o'zini-o'zi boshqarish organlari hamda jamoatchilik tashkilotlari tomonidan huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish, jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash borasida qonun hujjatlari bilan belgilangan vazifalarni bajarishda xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilganligi ko'rsatib o'tilsin.

3. Viloyat ichki ishlar bosh boshqarmasi boshlig'i T.Aripovga:

viloyat hududida istiqomat qiluvchi profilaktik hisobda turgan muqaddam sudlangan, spirtli ichimlik va giyohvand moddalarni iste'mol qilishga ruju qo'ygan, notinch oilalar va boshqa shaxslar bilan tegishli muassasa hamda tashkilotlar bilan hamkorlikda muntazam ravishda profilaktik suhbatlar o'tkazish, ularning turmush tarzini o'rganib borish, yechimini topmayotgan muammolarni tegishli mutasaddilar bilan hal etish;

profilaktik hisobda turgan, ayniqsa, ilgari sudlangan, ma'muriy nazoratga olingan, probatsiya hisobida turgan shaxslar tomonidan qayta jinoyatlar sodir etilishini oldini olish maqsadida doimiy ravishda ularning turmush tarzi, xulq-atvori, oilaviy daromad manbalarini o'rganish va aniqlangan muammolarni bartaraf etilishini kunlik nazoratga olish;

ilgari sudlangan shaxslarni ijtimoiy hayotga moslashishlarini yengillashtirish maqsadida ularga mahalladan murabbiy biriktirish, ishsizlarini ish bilan ta'minlash chorasini ko'rish, mavjud muammolarini kerak bo'lsa shahar, tuman rahbarlari miqyosida hal etish choralarini ko'rish;

voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyat va huquqbuzarliklar sodir etilishini oldini olishda ham barchamiz o'z hissamizni qo'shishimiz lozim. Jumladan, ota-onalar farzandini nima bilan mashg'ulligini nazoratga olishlari, voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixologlar tomonidan tarbiyasi og'ir yoshlar bilan doimiy ravishda profilaktik tadbirlarni olib borishlari;

viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi bilan hamkorlikda, Jamoat joylarida aholi sog'lig'ini saqlashni ta'minlash, aholini sog'lom turmush tarziga undash, fuqarolarda o'zi va boshqa odamlar salomatligi uchun javobgarlik hissini tarbiyalash bo'yicha

chora-tadbirlarni amalga oshirish;

o'tkir alkogolli mastlik holatida jamoat joylarida bo'lgan, mustaqil harakat qilish yoki adashmay yo'l topish qobiliyatini yo'qotgan hamda o'zining harakatlari bilan jamoat xavfsizligiga tahdid soladigan shaxslarga mastlik holatini bartaraf etish maqsadida ularga tibbiy yordam ko'rsatish choralari ko'rish;

alkogolizm, giyohvandlik, toksik moddalarni iste'mol qilish, o'zgalarga xavf tug'diradigan boshqa kasalliklarga chalingan shaxslar, shuningdek ruhiy kasalliklarni tibbiy ijtimoiy reabilitasiya qilish ishlarini amalga oshirish;

sog'liqni saqlash muassasalari hisobida turuvchi ichkilikka ruju qo'ygan, giyohvandlar hamda tajovuzkor ruhiy- kasallarni yashash manzili bo'yicha doimiy o'rganib borish, bu borada "patronaj" xizmati tibbiyot xodimlarini keng jalb etish, shuningdek tibbiy yordamga muhtoj bemorlarni majburiy davolashga yotqizish choralari ko'rish;

shaxsning hayoti va sog'lig'iga qarshi, shu jumladan oila turmush doirasida sodir etilgan, shuningdek, ayollar tomonidan jinoyatlar sodir etilishining barvaqt oldini olish va nizoli oilalardagi ma'naviy muhitni yaxshilash maqsadida mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda oilalardagi ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, oiladagi nizolarga barham berishga qaratilgan profilaktik tadbirlarni yanada kuchaytirish;

tazyiq va zo'ravonlikka uchragan xotin-qizlarning jinoyatdan jabrlanishini oldini olishda himoya orderi rasmiylashtirish amaliyotini keng joriy qilish, bunda himoya orderiga rioya etilishi ustidan doimiy nazorat o'rnatilib, cheklovlarni buzgan shaxslarga nisbatan qat'iy choralarni ko'rib borish;

aholi o'rtasida oilaviy nizolar, yoshlar tarbiyasiga e'tiborsizlik holatlari, fuqarolar, ayniqsa, yoshlarning turli yot g'oyalar ta'siriga tushib qolishi, ichkilikbozlik hamda giyohvandlik illatlariga berilishi, huquqbuzarliklarning sodir etilishi oilalar barbod bo'lishining asosiy sabablaridan biri ekanligi haqida tushuntirish ishlarini olib borish;

yigit va qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash, yosh oilalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga ko'maklashish;

oilaning muqaddasligi va oilaviy munosabatlar buzilishining oldini olish bo'yicha manzilli targ'ibot ishlarini tashkil etish;

yoshlar tomonidan jinoyatlar sodir etilishini oldini olish maqsadida, hududiy bloggerlar va ijtimoiy tarmoqlar orqali, ularni jinoyat olamidani qaytaruvchi, yoshlarimizning tafakkuriga va mafkurasiga ijobiy ta'sir ko'satuvchi, dunyoqarashidagi bo'shliqlarni to'ldiruvchi ijtimoiy roliklar ishlab chiqib, ularni targ'ib qilish;

yoshlarni bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida, "Yoshlarning bo'sh vaqti – yetakchining ish vaqti" tamoyili asosida tadbirlar, loyihalar va musobaqalar hamda to'garaklar tashkil etish;

firibgarlik jinoyatlarini sodir etganligi uchun ilgari sudlangan va profilaktik hisobda turuvchi shaxslar bilan yakka tartibdagi tarbiyaviy profilaktik ishlar va nazoratini kuchaytirish;

aholini kiber-jinoyatchilarning xatti-harakatlaridan xabardor qilish maqsadida, plastik karta kod-raqamlarini begona shaxslarga taqdim etmaslik to'g'risida hududiy telegram tarmoqlari hamda ommaviy axborot vositalari orqali xabarlar yuborilishini ta'minlash;

sms-xabarnomada ko'rsatilgan kod-raqamlarni begonalarga bermaslik to'g'risidagi eslatma, flayer, banner, tarqatma materiallar tayyorlab, har bir xonadonga, tashkilot-muassasalardagi ishchi-xizmatchilarga tarqatish choralari ko'rish;

4. Tuman - shaharlar sektorlari rahbarlari, viloyat hamda tuman, shaharlar hokimlarining tegishli o'rinbosarlariga:

shahar-tumanlarda huquqbuzarlik va jinoyatchilikni oldini olish bo'yicha mahallalarda ishni tashkil etishda sektor rahbarlari tashabbus va talabchanliklari yanada kuchaytirilsin, tizimli ish tashkil qilgan holda kunlik so'rov va nazorat tizimi yo'lga qo'yilsin;

mahallalarda sodir etilayotgan jinoyatlarni oldini olishda 5050-sonli Qarorga asosan har bir mahallada huquq-tartibot maskanlarini to'liq tashkil qilinishi, tuman (shahar) hokimlari har oyda mahalla huquq-tartibot maskaniga rahbarlik qilayotgan profilaktika katta inspektori bilan shaxsan uchrashib, hududda jamoat xavfsizligini ta'minlash borasida aniqlangan muammoli masalalarni hal etish choralari ko'rilsin;

ish sifatini yaxshilash, profilaktika inspektorlari xodimlar orasida sog'lom raqobat muhitini yaratish maqsadida, o'zlariga birlashtirilgan mahalla hududida jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'ymaganligi uchun mahalla raisi va profilaktika inspektori sektor rahbarlari tomonidan rag'batlantirib borilsin;

bugungi kunda, yoshlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarni oldini olish maqsadida Yoshlar ishlari Agentligining viloyat boshqarmasi hamda viloyatning 1 ming 22 ta mahallasida faoliyat yuritayotgan yoshlar yetakchilari hamda sektor rahbarlari bilan hamkorlikka, muammosi mavjud bo'lgan yoshlarni ajratib olib, ularga murabbiylar birlashtirilgan holda muammolarini bartaraf etish;

mahallalarda sodir etilayotgan jinoyatlarni oldini olishda 5050-sonli Qarorga asosan har bir mahallada huquq-tartibot maskanlarini to'liq tashkil qilinishi, tuman (shahar) hokimlari har oyda mahalla huquq-tartibot maskaniga rahbarlik qilayotgan profilaktika katta inspektori bilan shaxsan uchrashib, hududda jamoat xavfsizligini

ta'minlash borasida aniqlangan muammoli masalalarni hal etish choralari ko'rish;

xotin-qizlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarni oldini olishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 4343-sonli qaroriga asosan tashkil etilgan xotin-qizlar o'rtasida huquqbuzarliklarni oldini olish bo'yicha inspektorlari bilan hududiy xotin-qizlar qo'mitasi a'zolari, mahalla faollari tomonidan profilaktik ishlarni kuchaytirish, huquqiy ongini oshirish, ajrimlarni oldini olish, ayollarni ish bilan ta'minlash, ularga imtiyozli kreditlar ajratish ishlariga alohida e'tibor qaratsin;

oila, turmush doirasida sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarni oldini olish maqsadida ularning muammolarini o'rganish va muammolarni hal etish yuzasidan aniq chora-tadbirlar belgilasin;

ilgari sudlangan shaxslarni ijtimoiy hayotga moslashishlarini yengillashtirish, profilaktika inspektorlari va mahalla faollari tomonidan ushbu toifadagi shaxslar bilan yaqindan ishlash, ularni turmush tarzini kuzatib borish, qayta jinoyat sodir etishlarini oldini olish yuzasidan chora-tadbirlar ko'rilsin;

o'quvchilarni o'qishga kelib-ketish masalasida kundalik nazoratni olib borishi, o'qishdan keyingi vaqtda nima ish bilan mashg'ulligi nazoratga olinsin.

“Ayollar” va “Yoshlar” daftariga kiritilgan ishsiz, ishlash istagi bo'lgan uyushmagan xotin-qizlarning bandligini ta'minlash, mehnat sharoitlarini yaxshilash, oilaviy va xususiy tadbirkorlikka, hunarmandchilikka keng jalb etish ishlari mutasaddi idoralar bilan hamkorlikda amalga oshirilsin;

5. Toshkent viloyati hokimining o'rinbosarlari va Ichki ishlar bosh boshqarmasi (Toxir Aripov) hamkorlikda barcha aholi gavjum bo'ladigan va mahallalarning kirish-chiqish joylari, magistral yo'llar, ko'p qavatli uylar atrofi, ayniqsa bozorlar va barcha savdo nuqtalariga kameralar o'rnatish, ularni markazlashgan holda Ichki ishlar bo'lim va bo'linmalariga ulanishini ta'minlash chorasi ko'rilsin.

6. Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmasi (Toxir Aripov) ushbu qarorning ijrosi yuzasidan har chorakda Xalq deputatlari viloyat Kengashiga axborot taqdim etib borsin.

7. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari viloyat Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha doimiy komissiya raisi Ra'no Turdiboyeva, viloyat hokimligi huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati, harbiy safarbarlik va favqulodda vaziyatlar masalalari bo'yicha guruhi rahbari Raxmatjon Kuralov hamda viloyat Ichki ishlar bosh boshqarmasi Toxir Aripov zimmasiga yuklatilsin.

**Xalq deputatlari viloyat
kengashi raisi**



Z.Mirzayev